

TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA
TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI VA TA'LIM SAMARADORLIGI

S. Abdurazzoqova ¹, M. Qurbonova ²

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida turli xil texnologiyalardan foydalanish va uning ta'lim oluvchi o'quvchilarga ta'siri va ta'lim samaradorligi haqida mulohazalar keltirilib o'tilgan. Har bir fan va har bir sohada ta'lim olayotgan o'quvchilarga texnologiyaning qanday ta'sir qilayotgani va ta'lim olishiga keng imkoniyatlar berilgani haqida mulohaza qilingan.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiyalar, chet tilli, ta'lim, internet, multimedia texnologiyalari.

doi: <https://doi.org/10.2024/r13pbf86>

Hozirgi davrda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish keng tarqalgan va ular ta'lim oluvchilarga keng imkoniyatlar berayotganidan barchamizning xabarimiz bor. Shu bilan birga salbiy jihatlari ham yo'q emas. XXI asr nafaqat texnologiya asri, shuningdek, yoshlarga keng imkoniyalar asri ham bo'ldi desak adashmaymiz. Asosan, hozirgi kunda ta'lim olish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish keng tarqaldi. Chekka-chekka qishloqlarga ham eng zamonaviy texnologiyalarning yetib borgani juda quvonarli holat. Aynan hozirgi davrda yoshlar internet, mobil telefon, zamonaviy texnologiyalarga juda bog'lanib qolgan desak adashmagan bo'lamiz. Maktablarda boshlang'ich sinflarga turli xil o'qitish texnologiyalaridan foydalanib, ular yordamida dars berayotgan o'qituvchilar o'zlari ham yangi texnologiya tizimini o'rganayotganidan xabarimiz bor. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga komputer va zamonaviy televizorlardan foydalanish juda katta yangilik va uning o'quvchi va o'qituvchilarga juda qulay kelayotgani va o'qituvchilarning ish jarayonini ancha yengillashtirayotgani quvonarli holat. Birinchi o'rinda o'quvchilarning ta'lim olishga qiziqishi ortadi va o'qituvchilarimiz ham qiynalmasdan dars mavzusini ularga yetkazib bera oladi. O'quvchilar qiziqish bilan dars jarayonini kuzatib borishadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga katta e'tibor berilayapti. OTMlarga kirishga katta imkoniyatlar berilgan, maktab o'quvchilarining deyarli hammasi OTMga o'qishga kirib ta'lim olishyapti. Yaqin 4-5 yillarda qishloq maktablarida bitta sinfdan kamida 5-6 kishigina OTMlarga o'qishga kirar edi. Lekin ta'lim sifatining yaxshilanishi oqibatida va ta'limga keng qulayliklar berilgani sababli ular soni ortdi. XX asr ta'lim jarayonini oladigan bo'lsak, faqat yozish va o'qish bilan darslar tashkil etilgan, u ta'lim tizimini noto'g'ri deya olmaymiz, ammo XXI asr undan keng farq qiladi va natijasi yengil va oson.

¹ Abdurazzoqova Sabohat Abdurazzoq qizi, SamDChTI o'qituvchisi

² Qurbonova Mixxoloy Marqa qizi, SamDChTI talabasi

Hozirgi ta'lim shaklida o'qituvchilarning mavzuga aloqador turli xil video, va ko'plab o'yinlar orqali dars berayotgani va ta'lim oluvchilarning unga qiziqishi ortayotgani quvonarli holat. Fikrimcha, ta'lim oluvchilar turli xil o'yinlar va o'zgacha harakatlar orqali sifatli va kengroq bilim olishadi. Insonlar, nafaqat insonlar balki, jonzotlar ham ijtimoiy ko'nikmalarni o'yin orqali tez va oson o'rganishadi, chunki ular qiziquvchan bo'lishadi. Dars davomida video darsliklardan foydalanish ham keng tarqaldi. Buning afzallik taraflari shundaki, ko'rgazma davomida pauza qilishingiz, ko'rgazmalarigizni muhokama qilishingiz va talabalarga savollar berishingiz mumkin. O'quvchilar ko'rgan narsasidan xulosa chiqarishi kerak. Namoyish vaqtida bo'lishi va juda cho'zilib ham ketmasligi kerak. Hozirgi kunda ta'lim sohasini rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilgan va ulardan asosiysi zamonaviy texnologiyalardir. Ulardan nafaqat katta yoshdagilar balki, yosh bolalar ham keng foydalanmoqdalar. Zamonaviy texnologiyalar har bir ta'lim turi uchun foydali va samaralidir. Faqatgina undan to'g'ri foydalana bilsagina kifoya qiladi. Ta'lim jarayonida ulardan uzluksiz foydalanish ham to'g'ri yo'l emas. Chunki dars jarayonida asosan ma'ruza jarayonida smartfonlardan foydalanish mumkin emas. Chunki, o'quvchi o'qituvchining bergan ma'lumotlariga bor fikr-u xayoli bilan e'tibor bermaydi. Smartfonlardan umuman foydalanmaslik kerak degan fikr ham to'g'ri emas. Ular orqali darsni mustahkamlash va yoshlarni qiziqtirish mumkin. Butun dars davomida emas, lekin ma'lum vaqt foydalanish kerak. Oddiy kitob yoki ma'lum shunga o'xshagan narsalardan mavzuga aloqador test yechgan o'quvchiga qaraganda smartfonda o'yin orqali ishlagan o'quvchi test yechishdan zerikmaydi va o'sha ishlagan savollari ko'proq esda qoladi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ayniqsa to'g'ri foydalana bilish juda samarali yo'l. Lekin shuni aytib o'tish kerakki, faqatgina smartfon, komputer, planshet yoki shunga o'xshagan zamonaviy texnologiyalarga bog'lanib, faqat shu bilangina dars berish samarali yo'l emas. Bunday texnologiyalardan o'z vaqtida, to'g'ri va mavjud bo'lgan vaqtlarda foydalana bilish kerak.

Internet- bu standart minimal internet protokoli (IP) orqali ma'lumot almashuvchi butun dunyoga omma uchun ma'lumotlarni yetkazib beruvchi va ularga yengillik olib keluvchi tarmoq hisbolanadi. Hozirgi kunda internetdan ta'lim tizimida keng foydalanib kelinmoqda. Internetning to'g'ri yo'lda foydalanilishi juda katta ahamiyatga ega. O'quvchilarga ta'lim olish jarayonida interneting yordami katta. Hozirgi kunda multimedia vositalari yordamida dars berish keng tarqaldi. Multimedia texnologiyalariga avvalo, tovushlar , video-elementlari qayta ishlovchi vositalar kiradi [2].

Multimedia vositalarini ta'limda qo'llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi.

- ta'limning gumanizatsiyalashuvini ta'minlash;
- o'quv jarayonining samaradorligini;
- ta'lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga;
- o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi kamol toptirishga;
- ta'lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishga;
- o'quvchilarning bilim ko'nikmalarini to'g'ri yo'naltirishga;
- o'z fikrini boshqalarga tushunarli va tez yetkazib berishga ;
- ta'lim shaklini yaxshilashga;

Lekin multimedia texnologiyalaridan foydalanish jarayonida bir qator jihatlarga e'tibor qartish kerak [4]. Multimediada taqdim etilayotgan o'quv materiallarini

tushunish uchun ular qulay bo'lishi, zamonaviy axborotlar va qulay vositalar orqali taqdim etilishi talab qilinadi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 30-iyunda bo'lib o'tgan qurultoyida yoshlarga murojaat qilib shunday deydi, "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi"[1]. Ilk ta'lim bu tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun ta'lim eng asosiy tushuncha hisoblanadi. Shunday texnologiyalar asrida yashayotgan ekanmiz, demak, biz har bir sohada mukammal va o'z ishimizga e'tiborli bo'lishimiz darkor. Har bir narsani, ayniqsa, chet tillarini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. O'ylashimcha, zamonaviy o'qituvchilar va bilimli ta'lim beruvchilarga zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ancha qulay va samarali.

Umumiy qilib aytganda, bugungi kunda o'qitish sifatini oshirish va ta'lim oluvchilarga to'g'ri bilim yetkazib berish uchun o'qituvchilardan keng ko'lamli bilim talab qilinyapti. Ta'lim beruvchilar o'zlarining bilim ko'nikmalarini va malakasini oshirib borishlari talab qilinyapti. Shuning uchun ta'lim sifatini ham oshirib har bir maktabga yangi texnologiyalarni yetkazib bermoqda. Undan ta'lim oluvchi har bir o'quvchi foydalanib bilimlarini oshirishi mumkin. Bu zamonaviy texnologiyalar ta'lim oluvchilarning dunyo qarashini kengaytiradi va ular bilim olishga yanada qiziqishi ortadi. Ammo, o'quvchilarning dunyoqarashini ta'kidlar ekanmiz, ulardan foydalanish qoidalarini ham unutmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Mirziyoyev Sh.M. *O'zbekiston Respublikasining 2017-yildagi qurultoyi. O'zbekiston Respublikasi 2017.-30-iyunda.*

[2]. Azamxonov, B.S Burxonova M.M(2003). *Oliy o'quv yurti talabalarining axborot kompetentsiyasini shakllantirish usullari. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 308-311b.*

[3]. Abdurazzoqova, S. (2024, April). *Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy akt dan foydalanishning o'ziga xos yo'llari. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 60-63).*

[4]. Burxonova M.M. Mo'minova N.B. (2003) *Yosh olimlar, doktorlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy forumi. 220 b.*

[5]. Ismatova N.B. et al. *Innovative technology techniques and their importance in the learning process. 2014. -C.101-104 b.*

[6]. Choriev A. Choriev N. *Pedagogika tarixi metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. -T. "Fan" nashriyoti, 2010-173 b.*

[7]. Zafarovna, E. A. (2022). *The role of educational games in english classes. Journal of new century innovations, 19(6), 342-344.*